



THE INFLUENCE OF MASS CULTURE ON MORAL RELATIONS IN SOCIETY

Eshmatbay Kalkanov

Associate Professor of the Department of
 "Social Sciences", University of Science and Technology,
 Candidate of Philosophical Sciences
 Tashkent, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: mass culture, moral relations, value system, social consciousness, spirituality, globalization.

Received: 20.10.25

Accepted: 21.10.25

Published: 22.10.25

Abstract: This article analyzes the influence of mass culture on moral relations in modern society from a socio-philosophical perspective. Mass culture, as one of the most powerful information and cultural mechanisms influencing human consciousness, changes the system of values and leads to the relativity of moral criteria. The article explores the impact of lifestyle and value models disseminated through mass media, the internet, cinema, advertising, and social networks on the worldview and social behavior of young people. Also, aspects of cultural patterns based on the ideas of consumerism, individualism, and hedonism that contradict national spiritual values are analyzed. The author highlights the dual nature of mass culture, which deforms moral consciousness and at the same time forms new processes of cultural adaptation.

JAMIYATDA AXLOQIY MUNOSABATLARGA OMMAVIY MADANIYATNING TA'SIRI

Eshmatbay Kalkanov

Fan va texnologiyalar universiteti "Ijtimoiy fanlar"
 kafedrasi dotsenti, falsafa fanlari nomzodi
 Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so'zlar: ommaviy madaniyat, axloqiy munosabatlar, qadriyatlar tizimi, ijtimoiy ong, ma'naviyat, globallashuv.

Annotatsiya: Mazkur maqolada ommaviy madaniyatning zamonaviy jamiyatlardagi axloqiy munosabatlarga ko'rsatadigan ta'siri ijtimoiy-

falsafiy nuqtayi nazardan tahlil qilinadi. Ommaviy madaniyat inson ongiga ta'sir etuvchi eng kuchli axborot va madaniy mexanizmlardan biri sifatida qadriyatlar tizimini o'zgartirib, axloqiy mezonlarning nisbiylashuviga olib kelmoqda. Maqolada ommaviy madaniyat mahsulotlari – ommaviy axborot vositalari, internet, kino, reklama va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan turmush tarzi va qadriyat modellarining yoshlar dunyoqarashi hamda ijtimoiy xulq-atvorga ta'siri ochib beriladi. Shuningdek, iste'molchilik, individuallik va hedonizm g'oyalari asosidagi madaniy namunalarning milliy ma'naviy qadriyatlarga zid jihatlari tahlil qilinadi. Muallif ommaviy madaniyatning axloqiy ongni deformatsiya qiluvchi va ayni paytda yangicha madaniy moslashuv jarayonlarini shakllantiruvchi ikki qirrali mohiyatini yoritadi.

ВЛИЯНИЕ МАССОВОЙ КУЛЬТУРЫ НА ПРАВСТВЕННЫЕ ОТНОШЕНИЯ В ОБЩЕСТВЕ

Эшматбай Калканов

Доцент кафедры “Социальные науки”

Университета науки и технологий,

кандидат философских наук

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: массовая культура, нравственные отношения, система ценностей, общественное сознание, духовность, глобализация.

Аннотация: В данной статье анализируется влияние массовой культуры на нравственные отношения в современном обществе с социально-философской точки зрения. Массовая культура, как один из самых мощных информационных и культурных механизмов, влияющих на сознание человека, изменяет систему ценностей и приводит к относительности моральных критериев. В статье раскрывается влияние образа жизни и ценностных моделей, распространяемых через продукты массовой культуры - средства массовой информации, интернет, кино, рекламу и социальные сети - на мировоззрение и социальное поведение молодежи. Также анализируются аспекты культурных образцов, основанных на идеях потребительства, индивидуализма и гедонизма, противоречащие национальным

духовным ценностям. Автор освещает двойственную сущность массовой культуры, которая деформирует нравственное сознание и одновременно формирует новые процессы культурной адаптации.

Kirish. Zamonaviy globallashuv sharoitida ommaviy madaniyat inson hayotining barcha jabhalariga chuqur kirib borib, ijtimoiy ong va axloqiy munosabatlar tizimiga sezilarli ta'sir ko'rsatmoqda. Axborot oqimlarining tezlashuvi, internet va ijtimoiy tarmoqlarning kengayishi natijasida jamiyatda ommaviy madaniyat mahsulotlari nafaqat estetik, balki axloqiy me'yorlarni ham belgilovchi kuchga aylanmoqda. Ayniqsa, yosh avlod dunyoqarashida individualizm, iste'molchilik va zavqparastlik kabi g'oyalarning ustuvorligi milliy qadriyatlar va an'anaviy axloqiy me'yorlarning zaiflashuviga sabab bo'lmoqda.

Shu bois, ommaviy madaniyatning axloqiy munosabatlarga ta'sirini ijtimoiy-falsafiy tahlil etish hozirgi davrda muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi. Ommaviy madaniyatning shakllanish omillari, uning axloqiy ong va xulq-atvorga ta'sir mexanizmlari hamda milliy ma'naviy qadriyatlar bilan o'zaro munosabati tahlil qilinadi. Tadqiqot natijalari zamonaviy jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta'minlash yo'lida madaniy va ma'naviy siyosatni takomillashtirishga xizmat qiladi.

Mazkur mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Jamiyatda axloqiy munosabatlarga ommaviy madaniyatning ta'siri masalasi so'nggi o'n yilliklarda sotsiologiya, falsafa, madaniyatshunoslik va axloqshunoslik sohalarida keng o'rganilayotgan dolzarb mavzulardan biridir. G'arb olimlaridan T. Adorno va M. Horkxaymerning "Madaniyat industriyasi" konsepsiyasi ommaviy madaniyatning inson ongini standartlashtiruvchi, iste'molchilik ruhini kuchaytiruvchi xususiyatlarini ochib bergan bo'lib, u jamiyatning axloqiy qadriyatlariga ta'sir qiluvchi asosiy mexanizmlarni tushuntiradi. G. Deborning "Tomosha jamiyati" asarida esa ommaviy madaniyat inson hayotini vizual obrazlar orqali boshqaruvchi tizim sifatida talqin etiladi. Postmodernist tadqiqotchilar – J. Bodriyar va F. Jeymsonlar esa ommaviy madaniyatni "simulyakrlar madaniyati" sifatida ko'rib, unda axloqiy mezonlarning nisbiylashuvi va sun'iy qadriyatlarning shakllanishini tahlil qiladilar.

O'zbekistonda bu masalaga doir ilmiy yondashuvlar I. Jo'raev, A. Rustamov, M. Xolbekov, Z. Xasanov, Sh. Yuldashev kabi olimlar asarlarida ko'rinadi. Ular ommaviy madaniyatning yoshlar axloqiy qarashlariga, ma'naviy tarbiyaning o'ziga xosligiga va milliy identifikatsiya jarayonlariga ta'sirini tahlil qilganlar. Xususan, I. Jo'raev ommaviy

madaniyatning globallashtirish bilan bog'liq ma'naviy tahdidlarini tahlil etib, uni milliy qadriyatlar orqali muvozanatlashtirish zarurligini asoslagan.

Axborotlashuv jarayonining kuchayishi shaxs hayot sharoitini, turmush tarzini tubdan o'zgartirib yubormoqda. Hozirgi avlod kishilarining ko'pchiligi shaxsiy avtomobillarga, uyali telefon, Internetga ulangan shaxsiy kompyuterlarga ega bo'lib bormoqda. Uning ish va ishdan tashqari butun faoliyati ana shu aloqa vositalari bilan bog'liq. Bu vositalar orqali hozirgi avlod butun dunyo bilan bog'langan, bilim, axborot oladi, ishlaydi, dam oladi, boshqa shaxslar bilan muloqotda bo'ladi. Uning vaqti nihoyatda tig'iz; bevosita muloqotlarga ham, jiddiy nazariy muammolar to'g'risida chuqur fikr, tanqidiy ijodiy nuqtai nazarini shakllantirishga ham, qadrdonlarini sog'inib, diydorlashishga ham vaqt ajratishi qiyin. Bularning hammasini aloqa vositalari orqali amalga oshiradi. Bundan tashqari, ilgari avlod sanoqli kishilar bilan turli masalalar yuzasidan bog'lanish imkoniyatiga ega bo'lgan. Hozirgi avlod juda ko'plab kishilar bilan aloqada bo'ladi, kerak bo'lmasa, aloqani uzib qo'yadi. U qalin jildli badiiy asarlarni, bosh qotirishga, o'ylashga majbur qiladigan jiddiy tadqiqotlarni o'qimaydi, ularning mazmunini, nari borsa, qisqa muddatli filmlardan bilib oladi.

Tahlil va natijalar. Avvalo, shaxsning tarixiy rivojlanishini tahlil qilaylik. Rus olimi A.V.Kostina shaxsning uch tarixiy tipini ajratadi: jamoaviy shaxs, individuallashtirilgan shaxs va ommaviylashgan individlardir [1]. Jamoaviy shaxs uchun madaniy ijtimoiylashuv jarayoni o'zini, asosan, ijtimoiy birlik bilan bog'lashga asoslanadi. Bu esa an'anaviy xulq normalariga so'zsiz itoat etishni talab qiladigan jamoaviy ijtimoiy tasavvurlarning hukmronligi bilan belgilanadi. Jamoaviy ijtimoiy tasavvurlar shaxsning individual erkinligi namoyon bo'lishiga ham, uning o'ziga xos qadriyatlarini anglashga ham yo'l qo'ymaydi. Shaxsning jamoaviy tipi ma'lum madaniy qoliplarni saqlashning katta imkoniyatlariga ega. Shuning uchun an'anaviy madaniyat tarix tasdig'idan o'tgan madaniy namunalarni saqlab qolish mexanizmi sifatida amal qiladi.

Lekin jamoaviy shaxs faoliyati madaniyat mazmunini yuqori tezlikda o'zgarib borayotgan inson hayotining madaniy-texnologik muhiti talablariga mos holda rivojlantirishga yo'nalmagan. Paradoksal qarorlar, tub innovatsion g'oyalarni qabul qilish, an'anaviy tajriba doirasidan tashqariga chiqish imkoniyati individuallashtirilgan shaxsga xos. U ijtimoiy tizimni barqarorlashtirish, asrlar davomida to'plangan madaniyatning potensial imkoniyatlarini saqlab qolish bilan kifoyalanmaydi, yangi mazmun va ma'no axtaradi, ishlab chiqadi, bilimi, layoqati chegarasini kengaytiradi, paradoksal tarzda fikrlaydi va harakat qiladi.

Ommaviylashgan individ esa jamiyatning o'ziga xos sub'ekti sifatida, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy ziddiyatlarni hal qilish mexanizmlarini shakllantirish sharoiti sifatida

namoyon bo'ladi. U ijtimoiy guruhlar, institutlar va alohida individlar tomonidan ma'qullanadigan xususiyat va sifatlarni o'zida shakllantirish bilan cheklanmaydi, balki kutiladigan, talab qilinadigan sifat va xususiyatlarga ega bo'lishga ham intilib, jamiyatda o'ziga xos funksiyalarni bajaradi. Bunda individning ijtimoiylashuvi ijtimoiy funksiyalarni bajarishga asoslangan, uni o'rab turgan ijtimoiy muhit ta'sirida kechadi. Bu muhit uning individual tajribasining to'planishiga, insonning ijtimoiy mavjudot sifatida faoliyatini ta'minlash darajasida layoqati rivojlanishiga olib keladi.

A.V.Kostina shaxsning bu tiplarini ta'riflab, shunday xulosa chiqaradi: Renessans davrigacha jamoaviy shaxs hukmron bo'lgan, yangi davrda individuallashtirilgan shaxs ustuvor mavqei egallagan, industrialashuvning kuchayishi bilan u o'z o'rnini ommaviy individga bo'shatib bera boshlagan[1]. Shaxslarning bu tiplari hech qachon yagona tip sifatida maydonga chiqmaydi, har doimo faqat bittasi ustuvor bo'ladi, ustuvor bo'lganda ham miqdoriga ko'ra emas, sifatiga ko'ra ustuvor bo'ladi. Ular yagona ijtimoiy va madaniy makonda birgalikda mavjud bo'ladi. Ijtimoiy va madaniy makonning chekka joylari va markazida nisbatlari turlicha bo'lishi mumkin.

Axborotlashgan jamiyat sharoitida ommaviylashgan individ ustuvor bo'lishini inkor qilmasakda, bu jarayon turli ijtimoiy va madaniy muhitlarda turlicha kechishini, ommaviylashgan individning barcha xususiyat va belgilari turli madaniyatlarda aynan bir xil bo'lmashligini ta'kidlamoqchimiz.

Ommaviylashgan individning shakllanishini faqat ob'ektiv sharoitlar bilan tushuntirib bo'lmaydi. Jamiyat madaniyatining xususiyatlari, unda ustuvor bo'lgan jihatlar, shaxslarning ta'lim-tarbiyasi kabi omillar, albatta, kelgusi jamiyatning ham, shaxslarning ham ma'naviy qiyofasini belgilaydi. Kishilar o'z dunyoqarashlari, ishonch-e'tiqodlari, manfaat va maqsadlaridan, jamiyat va o'z faoliyatlarida ustuvor bo'lgan axloqiy tamoyillardan kelib chiqib, axloqiy munosabatlardagi o'zgarishlarni qabul qiladilar.

O'zbekiston jamiyati milliy madaniyati, shaxslarning ruhiy olami, unda jamoaviylik va individuallik axloqiy tamoyillarining nisbati axloqiy o'zgarishlarning o'ziga xos shaklini, mazmunini belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxs ma'naviyatining, axloqining asosi bo'lgan hayotning ma'nosi, yashashning mazmuni haqidagi tasavvurlar bunda hal qiluvchi rol o'ynaydi. I.Saifnazarov inson e'tiqodini shakllantiruvchi uch omilni ko'rsatadi:

“ - inson hayotining maqsadi va mazmunini anglatadigan, hayotiy dunyoqarashini belgilaydigan, xalqimizning buyuk va qadimiy merosida ifodalangan ijtimoiy-gumanitar bilimlar;

- shaxsning intellektual salohiyatini yuksaltiradigan va chuqurlashtiradigan, ta'lim jarayonlarini baholashning eng xolis yo'llarini, tamoyillarini, usullarini shakllantiradigan ilmiy-nazariy, ijtimoiy-falsafiy bilimlar;

- o'zga xalqlar hayoti, madaniyati, ma'naviyati, dunyoqarashini o'rgatadigan, uni o'zi mansub milliy madaniyat bilan taqqoslab, har birining munosib o'rnini anglashga imkon beradigan hozirgi zamon ilg'or ijtimoiy bilimlari"[2]. Olim I.Saifnazarov ta'lim-tarbiyaning asosiy unsurlari, deb ataydi. Biz ana shu unsurlar jamiyatimiz hayoti va kishilarimiz ongiga qanday singdirilganini mulohaza qilib ko'raylik.

Ma'lumki, hayotiy dunyoqarashimizning asosini tashkil qiladigan, yashashimizga ma'no va mazmun bag'ishlaydigan axloqiy tamoyillar xalqimiz tomonidan yaratilgan xalq og'zaki ijodi – maqollarda, matallarda, qo'shiqlarda, ertak va dostonlar hamda boshqa ma'naviy mahsulotlarda o'z ifodasini topgan. Xalq og'zaki ijodi faqat bolalikda, yoshlikda o'rganilishi kerak bo'lgan bilimlar emas, insonga butun umri davomida saboq beradigan, hayotning mohiyati, mazmunini anglatadigan bitmas-tuganmas ijtimoiy-gumanitar bilimlardir. Birgina xalq ijodining eng qisqa, ammo eng chuqur ma'noli shakli – maqollarni olaylik. Ulardagi hayot falsafasi bizga turmushdagi har bir muammo bo'yicha saboq beradi, ishonch-e'tiqodimizni mustahkamlaydi, nima yaxshiyu nima yomon, qanday narsaga intilish keragu, qanday narsadan qochish kerakligini o'rgatadi. Xalq hayot tajribasidan saboq chiqarib, ijod qilgan bu ijtimoiy-gumanitar bilimlari shaxs g'oyaviy immunitetining asosiy zaminidir.

Albatta, hozirgi davr tamadduni sharoitida shaxs bu hayot falsafasi bilan cheklanib qolmaydi. U buyuk mutafakkirlar yaratgan asarlarda ifodalangan falsafa, ijtimoiy-gumanitar fanlar saboqlari asosida dunyoqarashini kengaytiradi, chuqurlashtiradi, zamon bilan hamnafasligini ta'minlaydi. Ammo ularning dastlabki asosi xalq falsafasi bo'lib qolaveradi. Xalq gumanitar bilimlari, asosan, yorqin tilda, badiiy shakllarda ifodalanadi. Ayniqsa, xalqparvarlik, vatanparvarlik, do'stlarga fidoyilik kabi umuminsoniy xislatlar tushunarli, g'oyat ta'sirchan ifodalanishi katta ahamiyatga ega. Shu sababli xalq ijodidagi (ertak, doston, matal va maqollarda) ifodasini topgan g'oyalar yosh avlodning qalbiga to'g'ridan-to'g'ri yetib boradi, unda yuksak fazilatlarni samarali shakllantiradi.

Xalqimizning ma'naviy merosi juda boy, ulardan buyuk falsafa ufurib turadi. Undan saboq olgan inson yuksak ma'naviyatga, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega bo'ladi, hayotning qiyinchiliklarini yengib o'tishga imkon beradigan, zararli g'oyalar tahdididan asraydigan g'oyaviy immunitetni mustahkamlaydi. Xalq ijodini chuqur o'rgangan, e'tiqodi xalq falsafasi ruhida shakllangan shaxsning g'oyaviy immuniteti tabiiy, mustahkam, o'zligini, ma'naviyatini himoya qilishga, yuksaltirishga qodir bo'ladi.

Buyuk ajdodlarimiz yaratgan badiiy, diniy, axloqiy, falsafiy durdonalarda ular ma'lum tizim asosida yanada sayqallashtirilgan, boyitilgan. Bu qadriyatlar avloddan-avlodga o'tib, taraqqiyot bilan hamnafas, ammo o'zligini saqlagan holda turmush kechirishga asos bo'lgan. Xonliklar davridagi tarqoqlik sharoitida bu merosdan bir tomonlama foydalanilgan, milliy qadriyatlar ruhida tarbiyalash bir qadar kuchsizlangan bo'lsa-da (ayrim kuchlarning tor egoistik manfaatlariga xizmat qiladigan jihatlari kuchaytirilgan), xalqimiz merosdan bahramand bo'lishidan mosuvo bo'lmagan edi. Rossiya istilosi davrida buyuk merosimizga bepisandlik bilan qarash boshlandi. Ayniqsa, bolsheviklar hukmronligi davrida kishilarimizni milliy ma'naviy qadriyatlarimizdan mahrum qilish zo'ravonlik bilan olib borildi. O'tmish merosni butunlay bekor qilib, mutlaqo yangi, "proletar madaniyati" bo'sh joyda yaratishga kirishildi. Xalqimiz merosidagi hayot amaliy falsafasi jo bo'lgan durdonalarga turli yorliqlar yopishtirilib, zararli deb e'lon qilindi, taqiqlandi. Xalq og'zaki ijodi ham, millatimiz buyuk farzandlarining asarlari ham tor, g'arazli tamoyillar asosida "saralandi". O'tmish ma'naviyatimizning ko'plab salafлари la'natlandi. Buyuk merosimizdan nomigagina, ayrim namunalar "tarashlangan", amalda buzilgan holda xalqimizga berildi.

Natijada, shaxslar hayotiy dunyoqarashining asosi bo'lgan ijtimoiy-gumanitar bilimlar amalda yo'qotildi. Bu ilmiy bilimlar o'rnini qoliplarga solingan qoidalar yig'indisi, yolg'on shiorlardan iborat bo'lgan kommunistik mafkura egalladi.

Ta'lim-tarbiyada insonparvarlik va gumanitar asoslarning yetishmasligi oqibatlari o'tgan asrning o'rtalaridan namoyon bo'la boshlagan edi. Ta'lim o'zining madaniy, axloqiy, yuksak shaxsga oid ruhini yo'qota boshladi. Bilimning barcha sohalarida gumanitar tafakkurdan texnokratik tafakkur ustuvor mavqe qozondi. Ammo, faoliyatning pragmatik bahosi, texnokratik tendensiya va kayfiyatlar axloqiy mezonlardan, boshqa kishilar hayotini idrok qilishga yo'nalganlikdan xoli. Texnokratik tafakkurning bir tomonlamaligi, ratsionallikni mutlaqlashtirishning xavfliligi haqida o'tgan asrdayoq ogohlantirilgan edi va bu hozirgi davrda ham dolzarb muammo bo'lib turibdi[3]. Rus olimi M.Baxtin gumanitar bilimlarning aniq fanlar beradigan bilimlardan tafovutini, o'ziga xosligini ko'rsatib, shunday deb yozgan edi: "Aniq fanlar – bilimning monologik takliflarini: intellekt narsani idrok qiladi va u haqda fikr bildiradi. Gumanitar bilishning ob'ekti o'zgacha xarakter kasb etadi. Gumanitar fan – ruh haqidagi fan. Chunki bu yerdagi dunyo inson tomonidan axloqiy-estetik idrok qilinadi va emotsional-qadriyatli ahamiyat kasb etadi"[4]. O'tmishdagi gumanistik merosning ta'lim-tarbiya jarayonidan olib tashlanishi uni axloqiy estetik asosidan mahrum qildi.

Totalitar tuzum davrida shaxsning ijodiy, tanqidiy tafakkuri yetarli bo'lmadi, hayotiy dunyoqarash ijtimoiy-gumanitar bilimlar asosida shakllantirilmadi, tuzum barbod bo'lganda,

hukmron mafkuradan voz kechilganda, ma'naviyatsizlik ijtimoiy ijobiy o'zgarishlarga katta to'siq bo'lib qoldi. Totalitar sovet tuzumi kishilarni inson erkinligining asosi bo'lgan xususiy mulkdan begona qilib, davlatning quliga aylantirdi. Davlat manfaatlari umumxalq manfaatlari niqobi ostida hamma narsadan ustun qo'yildi, erkin fikrlar plyuralizmiga yo'l berilmadi. O'ziga xos jamoaviy shaxs shakllandi. Yagona jamoaviy tartib, diktator davlat manfaatlari asosidagi axloqiy normalar shaxslar ma'naviyatining, dunyoqarashining tor, bir tomonlama bo'lishiga olib keldi. Individuallik axloqiy tamoyili faqat salbiy mazmunda talqin qilindi, shaxsning mustaqil, ijodiy tafakkuri bo'g'ib qo'yildi.

Mustaqillik yillari ana shunday sharoitda yangi jamiyat qurish uchun dunyoga o'z eshiklarini ochdi va hayotimizga ilg'or texnologiya, zamonaviy yutuqlar bilan birga turli ma'naviy mahsulotlar ham kirib kela boshladi. Ommaviy madaniyat shular jumlasidan. Ma'naviyat va axloq sohasidagi ziddiyatli jarayonlar bir bosqichda hal bo'ladigan muammolar emas. Jamiyat axborotlashuvi kuchayishi sharoitida jamoaviylik va individuallik axloqiy munosabatlarining o'zaro ta'siri, ularning ma'naviy-axloqiy taraqqiyotni ta'minlashga imkon beradigan nisbatini qaror toptirish oson hal qilinadigan ish emas. Har bir avlod jamiyat hayoti va o'z ma'naviy ehtiyojlaridan kelib chiqib, bu nisbatning shakliga, amal qilish mexanizmiga, mazmuniga yangiliklar kiritadi. Bu esa ommaviy madaniyatning salbiy ta'sirlariga qarshi kurashni doimo dolzarb qilib boradi.

Hozirgi davrda biz uchun yot axloqiy xatti-harakatlarning kishilar hayotiga ta'siri mustaqillikning dastlabki yillaridagidan farq qiladi. Mustaqillikning dastlabki yillarida shaxslar dunyoqarashi ob'ektiv ijtimoiy-gumanitar bilimlar, yuksak ma'naviy meros asosida shakllanib ulgurmagan, erkin faoliyatga asta-sekin sharoit yaratilayotgan edi, shaxslarning yangi ijtimoiy, iqtisodiy, ma'naviy jarayonlar kuchayishi sharoitida g'oyaviy immuniteti mustahkam emas, ayrim shaxslarning ongida g'oyaviy bo'shliq vujudga kelgan, manfaatimizga zid axloqiy xatti-harakatlar ta'siriga tushib qolgan edi.

Hozirgi kundagi yosh avlod esa xalqimizdan meros qolgan ijtimoiy-gumanitar qadriyatlar ruhida ta'lim-tarbiya olmoqda, jamiyatni xolisona tadqiq qiluvchi yangidan shakllangan ijtimoiy fanlarimiz konsepsiyalari bilan qurollanmoqda. "Yosh avlod tarbiyasi hamma zamonlarda ham muhim va dolzarb ahamiyatga ega bo'lib kelgan. Ammo biz yashayotgan XXI asrda bu masala haqiqatan ham hayot-mamot masalasiga aylanib bormoqda"[5]. Bundan tashqari, bozor munosabatlari yaratgan muhitda dunyoqarashlari o'zgarayotgan avlodning yangi kommunikatsiya texnologiyalari, ulardan foydalanish darajasi, axborot oqimining kuchi va shiddatiga munosabati ham o'zgara bordi. Yosh avlodning hayot sharoiti, maqsadi, qiziqish va

intilishlari oldingi avlodnikidan farq qiladi. Bu sharoitda “ommaviy madaniyat”ning yosh shaxslar ma’naviyatiga ta’sir qilish shakllari, mexanizmlari o’ziga xosligi tabiiy.

Bundan ko’rinadiki, Internet hali o’quvchi-talabalarning asosiy bilim manbaiga aylangan emas, ularning ko’pchiligini shov-shuvli gaplar, turli tipdagi yangi axborotlarga o’chlik Internetga ulanishlariga sabab bo’lmoqda. 70% respondent yosh bo’lishiga qaramasdan seriallarga ishqibozligi ularda ommaviy madaniyat mahsullariga ehtiyoj kattaligini ko’rsatadi. Shu boisdan ham O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev “Buning uchun zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish, jumladan, Internet tarmog’ida maxsus “maydon”lar yaratish zarur. Shu munosabat bilan mamlakatimiz fuqarolari davlat va jamiyat hayotiga daxldor muhim masalalar bo’yicha o’z fikrlarini bildirishlari uchun Internet tarmog’ida “Mening fikrim” deb nomlangan maxsus veb-sahifa tashkil etish maqsadga muvofiq”[6], degan edi. Elitar madaniyatga mansub jiddiy, tarixiy kinofilmlarning taqchilligi, milliy hayotimiz haqidagi filmlarning ko’proq maishiy mavzu bilan cheklanib qolayotganligi chet el ommaviy madaniyat namunalari yoshlar ongini jalb qilishga sabab bo’lmoqda. Ma’lumki, bu tipdagi seriallarning ko’pchilik qismi jiddiy bosh qotirishga undamaydi, jarayonlarga yuzaki, yengil-yelpi qarashga olib keladi, bo’sh vaqtni samarali o’tkazishga to’siq bo’ladi, havoyi xayolparastlikni kuchaytirib, ruhiyatga yomon ta’sir qiladi.

Yoshlarimiz o’z madaniyatlarini o’rganish, axloq normalarini egallab olish bilan bir qatorda boshqa xalqlar madaniyatidan ham xabardor bo’lib borishmoqda. Bu ijobiy jarayon: madaniy hodisalarning mohiyatini, o’ziga xosligini xolisona anglashga imkon beradi. Boshqacha aytganda, o’zga xalqlar madaniyatini bilish o’z milliy madaniyatini yaxshiroq anglashga, o’zga xalqlar madaniyatiga kengroq nuqtai nazardan qarashga olib keladi. Aksincha, bir madaniyatni anglash doirasida qolib ketish milliy biqlikka, fikr torligiga, jahon xalqlari madaniyatini tushunmaslikka sabab bo’ladi. O’z madaniyatini yaxshi bilmagan kishi o’zining mustahkam nuqtai nazariga ega bo’lishi qiyin yoki o’z istak va ehtiyojlariga mos bo’lgan, yaxshi yoki yomon bo’lgan barcha narsani qabul qilaveradi.

Ommaviy madaniyat xalqlarning madaniyati, ma’naviyati, axloqi bilan turli vositalar orqali tanishtiradi, milliy qadriyatlarni ommalashtiradi, boshqa xalqlar, mamlakatlar, davrlar hayoti bilan tanishtiradi, milliy axloqiy o’ziga xosliklarni iste’molchi hukmiga havola etish mumkin. Ma’lum ma’naviy guruhdagi kishilarning estetik talablarini qondiradi, axloqiy normalar evolyusiyasini tezlashtiradi. Ammo, ommaviy madaniyatga mansub hamma asarlar ham bunday emas. Bu jihatdan qaraganda, kitch-madaniyat namunalari ziddiyatli xarakterga ega. Bu madaniyat shakli keng ommani o’ziga tortishga (moddiy manfaat maqsadida) urinib, o’ziga jalb qiluvchi, iste’molchi hissiyotlariga ta’sir qiladigan jarayonlarni bo’rttirib, ba’zan axloq

normalari doirasidan chiqib ketadi. Ommaviy madaniyatning bu darajasi ommaviy madaniyat mahsullari bilan aralashib ketishi oson. Shu sababli “ommaviy madaniyat” niqobi ostida tarqaladi. Ommaviy madaniyat umuminsoniy axloqqa aloqasi yo‘q, milliylikka ham begona, aroqxo‘rlilik, giyohvandlik, odam o‘ldirish, zo‘rlilik, giyohvandlikni, terrorizmni, faxsh ishlarni targ‘ib qiladi va to‘g‘ridan-to‘g‘ri inson axloqini buzadi, uni insoniy xislatlardan mahrum qiladi, insonning egoistik xislatlarini kuchaytiradi, ijtimoiy hayotdan chetlanishga olib boradi. Bu haqda O‘zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.Karimov “Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch” asarida shunday yozadi: “... biz uchun mutlaqo yot bo‘lgan, ma’naviy va axloqiy tubanlik illatlarini o‘z ichiga olgan “ommaviy madaniyat” kirib kela boshladi va u, birinchi navbatda, yoshlarimizning ongiga salbiy ta’sir ko‘rsatmoqda. “Ommaviy madaniyat” niqobi ostida axloqiy buzqlik va zo‘ravonlik, individuallik, egotsentrizm g‘oyalari ildiz ota boshladi. Xalqimizning asrlar mobaynida yaratgan ma’naviy qadriyatlari eskilik sarqitlari sifatida qaralib, undan yuz o‘girish hollari sodir bo‘la boshladi, oila muqaddasligiga putur yetkazildi, yillar davomida shakllanib, sayqal topgan or-nomus, uyat va andisha, sharmu-hayo, ibo va iffat kabi yuksak axloqiy tuyg‘u va tushunchalar qadsizlanishi hollari yuz bermoqda”[7].

Ko‘pgina yoshlar esa axloq normalariga zid o‘rinlari ko‘p bo‘lgan “madaniyat” mahsullaridan xabardor. Bu shuni ko‘rsatadiki, kitchning mahsullari ko‘pincha ommaviy madaniyat unsurlariga ega. Kitch ommaviy madaniyatning eng keng tarqaladigan shakli ekanligini hisobga olsak, uning shaxslar axloqiga ta’siri ayon bo‘ladi. “Mana shunday va boshqa ko‘plab tahdidlar insoniyat hayotida jiddiy muammolarni keltirib chiqarayotgani – ayni haqiqat va buni hech kim inkor etolmaydi”[8].

Ommaviy madaniyatning shaxslar axloqiga salbiy ta’sirini bartaraf qilish uchun ta’lim-tarbiya tizimining axborotlashgan jamiyatga o‘tish sharoitlariga mos holda uzluksiz takomillashtirib borilishi lozim. Ijtimoiy–gumanitar bilimlarning barcha shakllari shaxs dunyoqarashi shakllanishi asosiga qo‘yilishi kishilarning hayotiy pozitsiyalarini, tanqidiy, ijodiy fikrlash layoqatlarini mustahkamlaydi, axloqiy o‘zgarishlarga ongli munosabatda bo‘lish, ommaviy madaniyat va ommaviy madaniyatning zararli ta’sirlaridan saqlanishiga xizmat qiladi.

Jamiyatda axloqiy munosabatlarga ommaviy madaniyatning ta’siri o‘rganish natijasida quyidagi xulosalarga kelindi: Birinchidan, ommaviy madaniyat globallashtiruv sharoitida axloqiy qadriyatlarni nisbiylashtirib, inson ongida iste’molchilik, individuallik va zavqparastlikni kuchaytiradi. Bu jarayon natijasida jamiyatdagi an’anaviy axloqiy mezonlar zaiflashib, yangi turdagi ijtimoiy xulq-atvor va qadriyat tizimlari shakllanmoqda.

Ikkinchidan, ommaviy axborot vositalari, internet va ijtimoiy tarmoqlar orqali tarqalayotgan madaniy mahsulotlar axloqiy ongni bevosita shakllantirib, insonlarning ijtimoiy

munosabatlariga estetik va psixologik ta'sir ko'rsatadi. Shu bois ommaviy madaniyat axloqiy ijtimoiylashuvning muhim omiliga aylangan.

Uchinchidan, ommaviy madaniyatning ijobiy jihati sifatida u jamiyatda kommunikativ madaniyatni rivojlantiradi, global axloqiy me'yorlar bilan tanishtiradi. Shu bilan birga, uning cheklanmagan tarqalishi milliy ma'naviyatga zid g'oyalar va stereotiplarni targ'ib qilish xavfini yuzaga keltiradi.

To'rtinchidan, axloqiy munosabatlarga ommaviy madaniyatning ta'siri ikki qirrali jarayondir: bir tomondan, u yangicha tafakkur va erkin fikrlashni rag'batlantirsa, ikkinchi tomondan, axloqiy beqarorlik va ma'naviy bo'shliqni keltirib chiqaradi. Shu sababli bu ta'sirni falsafiy asosda tahlil qilish zarur.

Beshinchidan, jamiyatda axloqiy barqarorlikni saqlash uchun ommaviy madaniyatni boshqarish, milliy ma'naviy qadriyatlarga tayangan madaniy siyosat yuritish hamda yoshlar ongida tanqidiy fikrlashni rivojlantirish muhim. Bu orqali global axborot muhitida sog'lom axloqiy me'yorlar mustahkamlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Костина А.В. Соотношение и взаимодействие традиционной, элитарной и массовой культуры в социальном пространстве современности: диссертация..доктора культурологических наук 24.00.01./ Химки, 2009. – 408 с.
2. Саифназаров И. Ахборот хуружлари ва мафкуравий иммунитет // “Парламент назорати ва ОАВ-мамлакатни модернизациялашнинг муҳим омили” мавзуидаги республика илмий-амалий конференция материаллари тўплами. 2012 йил 20 февраль. -Т.: 2012. 6-7 бет.
3. Агацци. Общество, основание на знания// Вопросы философии, 2012. №10. 3-20-с.
4. Бахтин М.М. Эстетика словесного творчества. -М.: 1979.-С.363.
5. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б. 505-506.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга Мурожаатномаси. – Т.: “Ўзбекистон”, 2018. –Б.27.
7. Каримов И.А. Юксак маънавият – енгилмас куч. – Т.: “Маънавият”, 2010. – Б.108.
8. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. – Т.: “Ўзбекистон”, 2017. – Б.505.